

Sog'liqni saqlash vazirligining  
2024 yil "\_\_\_\_"yanvardagi  
\_\_\_\_-son buyrug'iga ilova

**TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTINING  
USTAVI**

**Toshkent-2024 y.**

## **I. Umumiy qoidalar**

1. Toshkent davlat stomatologiya instituti (keyingi o‘rinlarda TDSI deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent davlat stomatologiya institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2014 yil 22 iyuldagi PQ-2215-sonli qaroriga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi stomatologiya fakulteti negizida tashkil qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 24 dekabrda”gi PQ-61-son qarorlariga muvofiq moliyaviy faoliyatni amalga oshiradi.

2. TDSI davlat oliy ta‘lim muassasasi hisoblanib, oliy ta‘limning asosiy va qo‘shimcha ta‘lim dasturlarini bajarish bo‘yicha ta‘lim faoliyati bilan shug‘ullanadi, shuningdek. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq o‘quv-pedagogik va ilmiy-metodik, shuningdek, boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi hamda ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatadi.

3. TDSI o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlari, Sog‘liqni saqlash vazirining buyruqlari va mazkur Ustavga amal qiladi.

4. TDSI yuridik shaxs hisoblanadi. Operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulki hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyat olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Mustaqil balansga (yoki smeta), bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa shu jumladan, valyuta bo‘yicha hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga, shtamplar va boshqa rekvizitlarga ega.

TDSI joylashgan manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi, 103 uy.

TDSIning o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi rasmiy to‘liq (qisqa) nomi:

a) davlat tili:

to‘liq nomi - Toshkent davlat Stomatologiya instituti; (lotin alifbosida: Toshkent davlat stomatologiya instituti); qisqartirilgan nomi – “TDSI” ;

b) rus tilida:

to‘liq nomi – Ташкентский государственный Стоматологический институт; qisqartirilgan nomi – “ТГСИ”;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi – “Tashkent state dental institute”; qisqartirilgan nomi – “TSDI”.

## **II. Institutning asosiy maqsad, vazifalari va funksiyalari**

5. TDSIning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo‘llash asosida bozor iqtisodiyoti talablariga mos raqobatbardosh, yuqori malakali va hozirgi zamon stomatologiyasining ilg‘or texnologiyalarini egallagan stomatologiya sohasining yuqori malakali tibbiyot kadrlari hamda davolash ishi, xalq tabobati va oliy hamshiralik ishi bo‘yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar va ilmiy mutaxassislarini tayyorlash;

stomatologiya, yuz-jag‘ jarrohligi sohasi va boshqa yo‘nalishlarida, jumladan biotexnologiyalar, hujayra va regenerativ tibbiyot sohalaridagi ilg‘or yutuqlardan foydalanilgan holda ilmiy-amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish;

institut klinikalarida aholiga stomatologiya va boshqa sohalarda yuqori malakali davolash-profilaktika yordamini ko‘rsatish hamda stomatologik kasalliklar diagnostikasi, profilaktikasi va ularni davolashning ilg‘or usullarini tatbiq etish;

respublikaning oliy tibbiyot ta‘limi tizimida stomatologiya, davolash ishi, xalq tabobati va oliy hamshiralik ishi sohasi bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida axborot va multimediya uskunalaridan foydalanilgan holda ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish;

tibbiyotning barcha sohalaridagi tibbiyot mutaxassislari va o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishni tashkil etish;

shaxsning intellektual, madaniy va ma‘naviy – axloqiy kamol topishiga bo‘lgan ehtiyojlarini oliy ta‘lim va oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim olishi orqali erishishni qondirish;

har tomonlama rivojlanshi va sodiq shaxsni, mustaqil davlat fuqarosini, o‘z vatanining fidoiysi, xalq, jamiyat va oila oldidagi o‘z mas‘uliyatini his qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, halq an‘analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi etib shakllantirish;

ilmiy-pedagogik xodimlar va ta‘lim oluvchilarning tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fanni taraqqiy ettirish, olingan natijalardan ta‘lim va iqtisodiy islohotlar jarayonida foydalanish;

jamiyatning axloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarini saqlash va boyitish;

aholi o‘rtasida bilimlarni tarqatish, uning ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy darajasini oshirish;

budjet va budjetdan tashqari mablag‘lardan oqilona foydalanish asosida o‘quv va ilmiy-tadqiqotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish;

talabalar va xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, ularga moddiy yordam ko‘rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta‘minlashning ta‘sirchan mexanizmlarini joriy etish;

### **III. O‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarning sub‘ektlari, ularning huquq va majburiyatlari**

#### **6. Talabalar:**

TDSI rektorining buyrug‘i bilan o‘qishga qabul qilingan shaxs TDSIning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi beriladi.

TDSIga qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi, oliy (ikkinchi va keyingi ta‘lim) ma‘lumotiga ega bo‘lgan shaxslar arizalariga binoan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalariga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari natijalariga ko‘ra to‘plangan ballarning reyting tizimi bo‘yicha amalga oshiriladi.

TDSIga qabul barcha uchun (ham grant, ham to‘lov-kontrakt bo‘yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosda amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlarning davlat granti bo‘yicha birinchi

navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz muayyan imtiyoz asosida o'qishga qabul qilish kafolatlanadi.

TDSIning talabalari quyidagi huquqlarga ega:

- fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;
- institut axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;
- bepul maslahatlar va yo'l-yo'riqlar olish;
- auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;
- ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalari, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim muassasasi, dekanat va kafedra bo'limi rahbariyatga bildirish va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;
- institut va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarida va ilmiy konferensiyalarda qatnashish va ularning natijalarini nashr etish va bu haqida axborotlar berish;
- institutda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish;
- o'qishdan tashqari vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy va boshqa jamoat mehnatlarda, qonunchilikka zid bo'lmagan ishlarda ishtirok etish;
- fakultetlar talabalari o'rnatilgan tartibda tanlov asosida qabul qilingan kursantlar harbiy tayyorgarlikni O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari akademiyasi zaxira va rezervdagi ofitserlar kursida belgilangan tartibda o'qish;
- sifatli va yuqori saviyada bilim olish, tanlangan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishi uchun zarur bo'lgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlaridan foydalanish;
- o'qish davrida ta'lim yo'nalishi va kursiga mos ravishda O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarining Oliy ta'lim muassasa va ilmiy amaliy markazlarida malaka oshirish, stajirovka o'tash, akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish, anjuman va konferensiyalarda ishtirok etish.

Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

7. Institut talabalari, jumladan, davlat grantida o'qiyotgan talabalar budjet hisobidan, to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar to'lagan kontrakt summasi hisobidan stipendiya bilan ta'minlanadilar.

Talabalar tegishli normativ-huquqiy xujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31-yanvardagi, 59-son qarorida belgilangan tartib va miqdorda Davlat stipendiyalari, shuningdek, ta'limni qo'llab-quvvatlashga yo'llangan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan homiylik asosida tayinlangan stipendiyalarni olish huquqiga egadirlar.

8. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021 yil 03-iyundagi 344-qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til berish to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, harbiy xizmatni o'tash uchun, salomatligini

tiklash uchun, homiladorlik va tugʻish uchun, bolalarni parvarish qilish uchun hamda oilasining betob aʼzosini (otasi, onasi yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar, turmush oʻrtogʻi, farzandi) parvarish qilish uchun beriladi.

9. Institutning talabalar turar joyiga muhtoj talabalari institutning talabalar turar joylaridan sanitariya meʼyorlari va qoidalariga javob beradigan joy (mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda) taʼminlanadi. Talabalar turar joylarida talabalarga kommunal-maishiy xizmatlar uchun toʻlovlarni inobatga olib, institut tomonidan belgilanadi. Turar joyga muhtoj talabalar mavjud boʻlgan holda, institutning talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarda foydalanish (ijaraga berish, boshqa kelishuvlar)ga ruxsat etilmaydi.

Institutning talabalari oʻqishdan boʻsh vaqtlarda oʻrnatilgan tartibga asosan mehnat faoliyati bilan shugʻullanish huquqiga ega.

10. TDSIdan chetlashtirilgan talabalar oʻqishini koʻchirish, qayta tiklash va oʻqishdan chetlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

11. TDSI talabalari oliy taʼlimning taʼlim dasturlari va oʻquv rejasida nazarda tutilgan bilimlarni egallashlari, topshiriqni barcha turlarini belgilangan muddatlarda bajarishlari zarur, TDSIning Ustaviga, ichki tartib odob-ahloq hamda talabalar turar joyi qoidalariga rioya etishlari shart.

Oʻzbekiston Respublikasi Hukumat qarorlari nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni oʻqish vaqti hisobidan taʼlim jarayoni bilan bogʻliq boʻlmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

13. Ushbu Ustav va Institutning ichki mehnat tartib qoidalarida, odob-ahloq qoidalarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, talabalarga nisbatan belgilangan tartibda intizomi jazo choralari qoʻllaniladi.

Ushbu Ustav va institutning Ichki mehnat tartib qoidalarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda bakalavriat va magistratura talabalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga nisbatan mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan qoʻyidagi intizomiy jazo choralari qoʻllaniladi:

1. hayfsan;

2. taʼlim oluvchilar (talabalar yoki tinglovchilar) safidan chetlatish.

Taʼlim oluvchi (bakalavriat va magistratura talabalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchi)lar qoʻyidagi hollarda taʼlim oluvchilar safidan chetlatilishi mumkin:

a) oʻz xohishiga binoan;

b) oʻqishning boshqa taʼlim muassasasiga koʻchirilishi munosabati bilan;

v) salomatligi tufayli (tibbiy komissiya xulosasi asosida);

g) oʻquv intizomini va oliy taʼlim muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun;

d) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

y) oʻqish uchun belgilangan toʻlov oʻz vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (toʻlov-kontrakt boʻyicha tahsil olayotganlar uchun);

j) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

z) vafot etganligi sababli.

Talaba institutda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rektor buyrug‘i asosida chetlashtiriladi.

14. Talabaga nisbatan qo‘llaniladigan intizomiy jazo yuzasidan ma‘lumot uning shaxsiy yig‘ma jildida saqlanadi.

Belgilangan muddatlarda fanlarni o‘zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo‘lgan) talaba oliy ta‘lim muassasasi rektor buyrug‘i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

Akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talaba to‘lov-kontrakt asosida o‘qishni quyi kursdagi o‘zlashtirmagan o‘quv semestri boshidan boshlash xuquqiga ega.

Kursdan kursga qoldirilgan talaba yuqoridagi bandlardagi holatlar bo‘yicha talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin.

Talaba institutdan chetlashtirilganda, uning shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma‘lumotnomasi (yoki shaxsini tasdiqlovchi hujjatga asosan uning qonuniy vakili) shaxsga topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig‘ma jildida saqlanadi.

Intizomiy jazolar talabalarning kasallik yoki ta‘tilda bo‘lgan vaqti hisobga olinmagan holda hatti-harakat aniqlangandan so‘ng, bir oydan va hatti-xarakat sodir etilgandan so‘ng, olti oydan kechiktirilmay qo‘llaniladi. Talabalar kasallik paytida, akademik ta‘til yoki homiladorlik va tug‘ish holati bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘til vaqtlarida intizomiy jazo choralarini qo‘llash man etiladi.

Talabaning kasal bo‘lganligi to‘g‘risida o‘zi yoki uning ota-onasi tomonidan yozma ariza bilan bevosita dekanatga, bir haftadan kechiktirilmasdan ma‘lum qilinadi.

15. TDSI qoshida kadrlar malakasini oshirish fakultetida o‘qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi. Tinglovchilarning maqomi ta‘lim xizmatlarini olish qismi bo‘yicha institutda muvofiq o‘quv shaklida ta‘lim olayotgan talabaning maqomi bilan tenglashtiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi, tinglovchilarni o‘qitish shartlari va huquqlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

16. TDSI ning doktorantlar va mustaqil izlanuvchilari muayyan yo‘nalish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilayotgan va falsafa doktori, fan doktori (PhD va DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlagan shaxslar hisoblanadi.

Doktorantlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan hollarda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy tadqiqot ishini olib borayotgan shaxs-doktorant hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasi tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlagan shaxs-mustaqil izlanuvchi hisoblanadi.

17. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim institutda o‘qish muddati uch yilgacha hisoblanadi.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayanch doktoranturaga, mustaqil izlanuvchanlikka magistr darajasi yoki klinik ordinatura yoki oliy ma‘lumot (mutaxassislik dasturi bo‘yicha) to‘g‘risidagi diplomga (guvohnoma) ega bo‘lgan, falsafa

doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqot asosini tashkil qilish mumkin bo'lgan muayyan natijalarga, shu jumladan, ilmiy jurnallar va nashrlarda chop etilgan kamida bitta ilmiy maqola hamda ilmiy amaliy konferensiyalar, seminarlarda, tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lgan, ikki yildan kam bo'lmagan ilmiy-pedagogik staj yoki ilmiy yutuqqa (ixtiro patent yoki mualliflik guvohnomasi) ega bo'lgan shaxslar rasmiylashtiriladi.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun fan doktori yoki falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan ilmiy darajalar, fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olingandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqot asosini tashkil qilish mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lgan shaxslar rasmiylashtiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutga qabul qilish, tuzatish, shuningdek, dissertatsiya ustida ishlayotganliklari uchun imtiyoz berish, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash kabi masalalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xorijiy fuqarolar Falsafa doktori (PhD) va Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayanch doktoranturaga, mustaqil izlanuvchanlikka O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga qo'yilgan talabalar asosida qabul qilinadi.

18. TDSIda professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xizmatlar lavozimlari mavjud.

Professor-o'qituvchilar tarkibiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi, assistent va o'qituvchi-stajor lavozimlari kiradi.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2021 yil 24 dekabrda PF-60-son Farmonidan kelib chiqib, Institutning rektor va prorektorlari Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Fakultet dekani Institutning prorektorlari tavsiyasiga ko'ra rektor tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Professor-o'qituvchilar tarkibidagi lavozimlarni egallash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

20. TDSIning professor-o'qituvchilari va ilmiy-xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasasi va fakul'tet Kengashlariga saylash va saylanish;

Institutning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

Institutning axborot-resurs markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarning xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan jamoa sharnomasiga muvofiq foydalanish;

o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

Institut ma'muriyatining buyruq va farmoyishlarini g'ayriqonuniy deb hisoblagan taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki sudga murojaat qilish;

qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovda qatnashish, lavozimlarni egallash;

o'zlari ishlayotgan kafedra, fakultetdan tashqari boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlash (asosiy ish joyi bilan kelishilgan holda);

xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;

o'z fani bo'yicha sifatli darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlash;

nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;

talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

grantlar, ilmiy loyihalar, xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;

mutaxassisliklari va ta'lim yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarining OTM va ilmiy amaliy markazlarida malaka oshirish, stajirovka o'tash, akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish, anjuman va konferensiyalarda ishtirok etish;

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasiga oid qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

21. TDSIning professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat;

ta'lim to'g'risida qonunchilik, mehnat, texnologiya va ijro intizomi, Institut Ustavi Toshkent davlat stomatologiya institutida faoliyat yuritayotgan xodimlar hamda talabalarning odoq-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi-qoidalariga qat'iy rioya qilish, o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o'qituvchilik sha'niga dog' tushirmaslik;

ish jarayonida muloqot qiladigan Institut xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan xush muomilada bo'lish;

ish beruvchining qonuniy buyruq va farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:

a) o'quv yuklamalari hajmini, o'quv-uslubiy, ilmiy, o'quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish;

b) darslik, o'quv qo'llanma tayyorlash, o'quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish;

v) tarbiyaviy ishlarni olib borish, shu jumladan, darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish;

d) Kengash tomonidan tasdiqlangan kafedra ilmiy mavzularida ishtirok etish;

ye) o'z malakasini muntazam ravishda oshirish;

akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun hamkorlikda yangi avlod o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualar yaratishda ishtirok etish;

tibbiyot sohasi bo'yicha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ochiq va muammoli mashg'ulotlar hamda "mahorat darslarini" o'tkazish, ma'naviy-ma'rifiy



ishlarda ishtirok etish, zamonaviy axborot – kommunikatsiya hamda pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashish;

mehnatni muhofaza qilish xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalarga rioya qilish;

Institutning mol-mulkini asrab-avaylash, undan oqilona foydalanish;

ish beruvchiga bevosita yetkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;

Institut jamoatchilik ishlarida qatnashish;

pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash;

zamonaviy sivilizatsiya va demokratik sharoitda ta'lim oluvchilarning tanlangan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha yuksak kasbiy tayyorgarligi, mehnatga bo'lgan qobiliyatini shakllantirish;

chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish;

ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijobiy qobiliyatni shakllantirish;

“Ustoz – shogird” tizimida ishtirok etib, o'ziga biriktirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnak bo'lish;

kiyinish madaniyatiga rioya etish;

respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;

Institut, fakultet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma'naviy ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish;

o'zi o'qitadigan fan dasturini fan va texnika yutuqlari asosida muntazam boyitib borish;

darslarni yuqori saviyada o'tish;

fan yo'nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;

har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar rejasi va reyting nazoratlari jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlash;

reyting tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;

talabalar bilimini xolisona baholash;

yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;

ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratni oshirish;

talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish hamda pullik ta'lim va servis xizmatlarini ko'rsatish;

oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish.

22. TDSI professor-o'qituvchilar tarkibining uch yilda kamida bir marta malakasini oshirish kafolatini ta'minlaydi.

23. TDSIning ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari Institutning Ichki mehnat tartib qoidalari hamda lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

#### **IV.O‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlar**

24. TDSIning quyidagi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning asosiy ta'lim dasturlari, qo'shimcha ta'lim (kadrlarni qayta tayyorlash va malakasi oshirish) dasturini amalga oshiradi:

a) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (bakalavriat) kunduzgi o'qitish shaklida stomatologiya, xalq tabobati, davolash ishi, oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha;

b) mavjud magistratura mutaxassisliklari bo'yicha.

Institutda kadrlar iste'molchilari talablari asosida yangi yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil etilishi mumkin.

25. TDSI ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha fundamental bilim va amaliy ko'nikmalar berish uchun o'qish muddati 4 yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'limidir.

Bakalavriat dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi natijalari asosida ta'lim yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura – bakalavriat negizi mavjud bo'lgan holda ma'lum bir yo'nalishning muayyan mutaxassisligi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o'qish muddati kamida 2 yildan kam bo'lmagan oliy ta'limdir.

Magistratura bosqichi o'quv dasturi asosida o'qishni tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi natijalariga muvofiq muayyan mutaxassislik bo'yicha "magistr" darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta'lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish huquqini beradi.

Oliy ta'limning turli bosqichida asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha dastlabki ta'lim olish, ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi.

26. TDSIda ta'lim jarayonini tashkil etish, Institut tomonidan ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalari va fan dasturlari, Institut rektori (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlanadigan yillik kalendar o'quv jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yo'li bilan tashkil etish, ya'ni, ta'lim shakllari uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan institut talabalariga oliy ta'limning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun zarur o'quv-uslubiy hujjatlarni yaratib, o'quv jarayonini tashkillashtirib berilishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonining birligi davlat ta'lim standartlari bilan ta'minlanadi. Institutning ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar kafedralari, ma'naviy-ma'rifiy va sport bo'g'inlariga, talabalar va boshqa jamoat tashkilotlariga rahbarlik qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

27. TDSIda o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma'ruza, konsultatsiya (maslahat), seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, yakka

mashg'ulot, nazorat ishi, mustaqil ish, amaliyot, bakalavrlik bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasida tanaffus 10 daqiqa. Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o'zbek, rus va ingliz tillari.

28. TDSIda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib boriladi.

Oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan "O'zstandart" agentligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan davlat ta'lim standarti qo'llaniladi.

29. TDSIda o'quv yili ikki semestrda bo'linadi va uning har birida talabalarning o'zlashtirishi joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakli aniqlab boriladi.

30. Talabalarni kursdan kursga o'tkazish, talabaning o'zlashtirish natijasiga asosan fakultet dekanining tavsiyasiga binoan rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Talabalarning kursdan kursga shartli o'tkazish mumkin emas.

Oliy ta'limning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

31. TDSIda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

32. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichi oliy ta'lim muassasasida tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni amalga oshirish tizimi.

Tayanch doktorantura va doktorantura tibbiyot fanlari (14.00.00 ixtisoslik shifri) ixtisosligi bo'yicha amalga oshiriladi.

33. TDSI oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar mutahassisliklari ro'yhati"ga muvofiq tegishli vazirlik (idora) ruxsati asosida tayanch doktorantura, doktorantura orqali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar tayyorlash va himoya qilish uchun Institutga izlanuvchilarni biriktirish ishlari amalga oshiriladi.

TDSI huzurida tibbiyot fanlarining stomatologiya, ko'z kasalliklari (oftalmologiya), otorinolaringologiya ixtisosligi (14.00.21, 14.00.08, 14.00.04 ixtisoslik shifri) bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini berish yuzasidan ixtisoslashgan ilmiy Kengash faoliyat ko'rsatadi.

TDSI Kengashining tematik rejalari bo'yicha, bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavsizligini ta'minlagan holda talabalar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilarni keng jalb etib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarni olib boradi.

34. Ilmiy tadqiqotlar quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi:

fan, texnika va madaniyatning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat budjeti mablag'lari;

shartnoma asosida sohaviy vazirliklar, idoralar, grant va homiy korxonalar, birlashmalar va boshqalar, shu jumladan, xorijiy tashkilotlar mablag'lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan.

## V. Institutning tarkibi

34. TDSIning tarkibiga quyidagilar kiradi:

**a) 6 ta fakultetlar:**

Stomatologiya fakulteti,  
Davolash fakulteti,  
Bolalar stomatologiyasi fakulteti,  
Xalqaro ta'lim fakulteti,  
Xorijiy talabalar bilan ishlash fakulteti,  
Malaka oshirish fakulteti.

**b) 36 ta kafedralar;**

Bolalar terapevtik stomatologiyasi kafedrası;  
Bolalar yuz-jag' jarroxligi kafedrası;  
Stomatologik kasalliklar profilaktikasi kafedrası;  
Ortodontiya va bolalar tishlarni protezlash kafedrası;  
Gospital ortopedik stomatologiya kafedrası;  
Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrası;  
Xirurgik stomatologiya va dental implantologiya;  
Tibbiy va biologik kimyo kafedrası;  
Gospital terapevtik stomatologiya kafedrası;  
Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrası;  
4-son terapevtik yo'nalishdagi fanlar kafedrası;  
Onkologiya va tibbiy radiologiya;  
Jamoat sog'liqni saqlashni boshqarish va jismoniy madaniyat kafedrası;  
Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrası;  
Ortopedik stomatologiya propedivtikasi;  
Terapevtik stomatologiya propedivtikasi;  
Lotin va xorijiy tillar;  
Jarroxlik va xarbiy dala jarroxligi kafedrası;  
Otorinolaringologiya;  
Oftalmologiya kafedrası;  
Anatomiya kafedrası;  
Biofizika va tibbiyotda axborot texnologiyalari kafedrası;  
1-son terapevtik yo'nalishdagi fanlar kafedrası;  
2-son terapevtik yo'nalishdagi fanlar kafedrası;  
Asab kasalliklari va fizioterapiya kafedrası;  
Ichki kasalliklar kafedrası;  
Akusherlik va ginekologiya;  
3-son terapevtik yo'nalishdagi fanlar kafedrası;  
O'zbek tili va pedagogika;  
Ijtimoiy fanlar kafedrası;  
Yuz-jag' jarroxligi kafedrası;  
Yuz-jag' kasalliklari va jaroxatlari kafedrası;  
Fiziologiya va patologiya kafedrası;  
Mikrobiologiya va farmakologiya kafedrası;  
Xirurgiya va transplantologiya;

Dermatologiya va kosmetologiya.

**v) boshqarma va bo'limlar:**

1. O'quv-uslubiy bo'lim
2. Magistratura bo'limi
3. Xalqaro hamkorlik bo'lim
4. Xodimlar bo'limi
5. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi;
6. Yoshlar bilan ishlash, Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
7. Buxgalteriya bo'limi
8. Reja-moliya bo'limi
9. Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi
10. Tahririy-nashriyot bo'limi
11. Birinchi bo'lim
12. Yuriskonsult
13. Devonxona va arxiv bo'limi
14. Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi
15. Axborot-resurs markazi
16. Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi
17. Fuqaro mudofaasi va mehnat muhofazasi bo'limi
18. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi,
19. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
20. Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi
21. Ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi
22. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi
23. Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati
24. Klinik ordinatura bo'limi
25. O'qitish-texnik vositalar bo'limi
26. Klinik o'quv bazalari bilan ishlash bo'limi
27. Mikrobiologiya laboratoriyasi
28. Ilmiy kengash kotibi
29. Institut kengash kotibi
30. Matbuot kotibi
31. Rektor yordamchisi
32. Xalq tabobati va oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlash bo'limi
33. Ikkinchi bo'lim

a) Stomatologiya klinikasi (konsultativ poliklinikaga ega bo'lgan);

b) Stomatologiya va yuz-jag' jarrohligi ilmiy amaliy markazi (keyingi o'rinda matnda Markaz)

Institut tasarrufida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3290-son qaroriga asosan berilgan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi 2-son akademik litsey faoliyat yuritadi.

Akademik litsey Davlat ta'lim standartlariga mos ravishda o'rta-maxsus ma'lumot beruvchi, o'quvchilarning qiziqish va imkoniyatlardan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish, oliy ta'limga maqsadli yo'naltirish, shuningdek, maxsus chuqurlashtirilgan tayyorgarliklarni talab etmaydigan alohida mutaxassislik beruvchi davlat ta'lim muassasasidir.

## **VI. Institutni boshqarish**

35. TDSIning boshqarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik asosida amalga oshiriladi.

Institut rektori va prorektorlari Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bunda kuzatuv kengashi o'z vakolatlarini oliy ta'lim muassasasi kengashiga topshirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi kengashiga kiruvchi vakolatlarni o'z zimmasiga olishga haqli.

Institutning Kuzatuv kengashini tashkil etish va tugatish, uning funktsiya va vazifalari, tarkibi va boshqa asoslari kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom bilan tasdiqlanadi.

Institut rektori Kuzatuv kengashining kotibi bo'lib hisoblanadi.

Rektor Institut faoliyatiga, shuningdek, Institutning Ustavi, Ichki mehnat tartib-qoidalari, Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun mas'uldir.

Rektor O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Institut nomidan ishonchnomasiz ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakillari sifatida qatnashadi. Institutning mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida Institutning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha buyruqlar beradi.

Rektor institutning vakolati doirasida:

institutning barcha xodimlari, talabalari va boshqa ta'lim olayotganlar uchun majburiy bo'lgan buyruq chiqaradi va topshiriqlar beradi;

Institutning prorektorlari lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va ularning muayyan vazifalari hamda mas'uliyatlarini belgilaydi;

Institutning xodimlari va xizmatchilarini, shuningdek, ilmiy-pedagogik xodimlarini O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Fakultet dekanlarining muayyan vazifalari hamda mas'uliyatlarini belgilaydi;

Institut xodimlari va xizmatchilarini, shuningdek, ilmiy-pedagogik xodimlarini lavozimga tayinlash va ozod qilish, ularga imtiyozlar berish O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi;

Institut tarkibiga kirgan ilmiy tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo'linmalarining vazifalarini belgilaydi va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

Institut xodimlarining lavozim maoshlariga har oylik ustamalar va qo'shimchalarni belgilaydi;

kasaba uyushma qo'mitasi yoki Institutning boshqa vakolatli organi bilan kelishgan holda Ichki mehnat tartib-qoidalari tasdiqlaydi;

Institutda namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag'lar hamda ish haqi fondi, tasdiqlangan institut xodimlarining son va lavozim maoshlari, tarif setkasi doirasida institut professor-o'qituvchilari tarkibi va institut xodimlarining shtat birliklarini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;

Institut Kuzatuv kengashining tavsiyasiga ko'ra o'rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq fakultetlarni, kafedralarni ochish yoki tugatish qarorlarini tasdiqlaydi va vakolat doirasiga kiruvchi boshqa vazifalarni bajaradi.

Rektor o'z vazifalarini o'rindoshlik bo'yicha bajarishi mumkin emas.

36. TDSI da kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni ta'lim va fan kasaba uyushmalari hamda ularning institutda saylangan organlari amalga oshiradi.

37. Amaldagi qonunchilikka muvofiq TDSI da ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik va yosh olimlar kengashi tashkil etilishi mumkin.

Rektorat va kengash o'z faoliyatida institut jamoatchilik tashkilotlarining tavsiyalarini ko'rib chiqadi va ularni hisobga oladi.

38. TDSI fakultetini rektor tomonidan tayinlangan Fakultet dekani o'z faoliyatida "Oliy ta'lim muassasasi fakultetining Kengashi to'g'risida"gi Nizomga amal qiladi.

"Oliy ta'lim muassasasi fakultetining Kengash to'g'risida"gi Nizomga muvofiq fakultetda kengash tashkil etilishi mumkin.

Kengash tarkibi, vakolatlari, shakllantirish va faoliyatining tartibi "Oliy ta'lim muassasasi fakultetining Kengashi to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

## **VII. Moliya-xo'jalik faoliyati va moddiy texnik baza (Prorektor Abror aka ko'rib tuzatish kiritib bergan)**

39. "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 24-dekabrda"gi PQ-60-son hamda, "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida 2021-yil 24-dekabrda"gi PQ-61-son Qarorlariga muvofiq moliyaviy faoliyatni amalga oshiradi. TDSI ga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqaruv huquqi bilan davlat (ta'sischi) tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, institut pasportiga muvofiq tibbiy va boshqa asbob-uskunalar, shuningdek, iste'mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan mulklar biriktirilgan.

40. TDSI jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'a, hadya yoki vasiyat bo'yicha berilgan pul mablag'lari, mol-mulk va boshqa mulkiy ob'ektlarga, institut faoliyatining sarmoyasi hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek o'z, faoliyati orqali oladigan daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy ob'ektlarga egalik qilish huquqi berilgan.

41. TDSI mol-mulknii ijaraga oluvchi va mol-mulknii ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq Institut o'ziga biriktirilgan ijaraga berilishi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan binolar, inshootlar va ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi davlat mulki va boshqa mol-mulklarni Institut kengashining roziligi bilan tasarruf etish huquqisiz, qonunda belgilangan narxlar asosida ijaraga berishni amalga oshiradi.

Ijara haqi sifatida olingan mablag'lar ta'lim jarayonini ta'minlash va uni rivojlantirish uchun foydalaniladi.

TDSIning asosiy faoliyatiga zarar yetmagan tartibda ta'lim hamda boshqa sohalarda pullik ta'lim va servis xizmatlarini amalga oshirish mumkin.

Institut shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak.

Institut o'z mulki bilan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarning ustav jamg'armasida qatnashish, pullik ta'lim xizmatlari, konsultatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Institut pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishni, budjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidagi ta'lim faoliyati doirasida va uning o'rniga amalga oshirilishi mumkin emas.

Institut O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Ustavga zid bo'lmagan shartomallarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

TDSIda lavozim maoshlari mehnat shartnomasi (bitimi) tuzilayotganda Kuzatuv kengashi bilan tasdiqlangan "Institutning mehnatiga haq to'lash to'g'risida"gi Nizom va mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Oliy ta'lim muassasasi xodimiga lavozim maoshi (stavka), o'z funksional vazifalarni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lanadi. Qo'shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmini oliy ta'lim muassasasi mustaqil, ish haqi fondi doirasida qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va hajmda belgilaydi.

Yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida xodimlarga ustamalar va moddiy rag'batlantirishning boshqa turlari miqdorlarini mustaqil belgilaydi.

Iqtidorli, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlaydi.

Saqlash xarajatlari, vazifa va majburiyatlarni bajarish, o'qitishning innovatsion shakl va uslublarini joriy etish hamda xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, dasturiy ta'minotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, o'quv va ilmiy laboratoriyalar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallarini (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob'ektlar), shu jumladan kitoblar, jurnallar, o'quv adabiyotlari xarid qilish va chop ettirish uchun mablag'larni mustaqil sarflaydi.

Belgilangan maoshlar attestatsiya natijasiga ko'ra faqat uni oshirish maqsadida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

42. TDSIda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan xonalarni ajratadi, kommunal xizmatlar va ularni tozalashni bepul tashkil etadi.

Institut qoshidagi tibbiy punkt, shuningdek, uning hududiga joylashgan yoki Institutning balansida bo'lgan hamda talaba, tinglovchi va xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi oshxona va boshqa umumiy ovqatlanish muassasalariga isitish, yoritish va suv ta'minoti bilan ta'minlangan xonalar ajratiladi.



Institutning tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **VIII. Xalqaro hamkorlik**

43. TDSI O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadi, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv dasturlari tashkil etish huquqiga ega.

Chel el fuqarolarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, Institut ilmiy-pedagogik xodimlarining O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'qituvchilik va ilmiy-tadqiqotchilik ishlari davlatlarning ta'limni boshqarish bo'yicha tegishli organlari orasidagi shartnomalar, shuningdek, TDSIning qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

44. TDSI quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari deb qaralishi mumkin bo'lmagan, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida belgilangan tartib asosida shartnomalar tuzish;

Xorijiy sheriklar ishtirokida institutning tarkibiy bo'linmalari (markazlar, laboratoriyalar, texnik saroylar va boshqa bo'linmalar) ni qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda tashkil etish.

45. TDSI O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ushbu Ustavda nazarda tutilgan va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda belgilangan vazifalarni bajarishga, shuningdek xalqaro aloqalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

46. Institut tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlari qonunchilikka binoan uning ustavida belgilangan faoliyatni ta'minlash uchun ishlatiladi.

### **IX. Yakuniy qoidalar**

47. TDSI O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda:

- uning vakolatiga kiritilgan vazifalarni bajarmaganligi;
- ta'lim jarayonida o'quv reja va jadvallarga muvofiq ta'lim dasturlarini to'liq bajarmaganligi;
- ta'lim jarayoni vaqtida Institutda ta'lim oluvchilar va xodimlarning hayoti va sog'lig'i ta'minlamagani;
- ta'lim oluvchilar va Institut xodimlarning huquq va erkinliklarini buzganligi;

48. TDSI O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartib asosida qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hatti-harakatlari uchun javob beradi. Institut Ustavi Kengashda muhokama qilinib, Institut rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Mazkur Ustavga belgilangan tartibda o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishi mumkin.